
Sertifikatlar topshirildi

Bugun Rishton tumani hokimi o'rinbosari-Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M.Bekmirzaeva tomonidan, «Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash» markazida 16 soatlik o'quv kurslarini tamomlagan yosh yigit qizlarga, o'quv darslarini tamomlaganligi bo'yicha sertifikatlarni taqdim etdi. Shuningdek, tadbir davomida M.Bekmirzaeva tomonidan yosh nikoxlanuvchi oilalarga, zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda «Oila — muqaddas», «Sog'lom oila — sog'lom jamiyat», «Oila — jamiyat va davlat himoyasida» va «Farovon oila — jamiyat ravnaqining asosi» kontseptual g'oyalari xususida va nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari, oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish hamda ibratli ota-ona bo'lishlari yuzasidan o'z tavsiya va maslahatlarini berdi.

2022-08-05 14:01:00